

XIVA–QO‘QON MUNOSABATLARI (XVIII – XIX ASRLARDA)
MANBASHUNOSLIGI

Bozorov Bahodir Botir o‘g‘li

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti,

Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari

mutaxassisligi 1-kurs magistranti

Telefon raqam: +998935282966

Orcid-ID: <https://orcid.org/0009-0003-6546-1895>

E-mail: bakhodirbozorov857@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVIII-XIX asrlarda Xiva xonligi hamda Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki xonlik o‘rtasidagi siyosiy aloqalarning rasmiy mazmunidan tashqari, elchilik safarlari, sovg‘a-salomlar, yozishmalar, savdo-sotiq va diniy aloqalar orqali shakllangan madaniy diplomatiya jihatlari yoritiladi. Shuningdek Markaziy Osiyoning mazkur ikki xonliklari o‘rtasidagi aloqalar elchilar, savdogarlar va mahalliy amaldorlar faoliyati orqali o‘rganilib, ularning o‘zaro ta’siri keng ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tomonlama tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Qo‘qon xonligi, F. Nazarov, diplomatiya, elchilik, savdo aloqalari, Qo‘ng‘irotlar, Firdavs ul-iqbol, Tarixi jahonnamoyi, madaniy diplomatiya, tarixiy manbalar.

Abstract: This article analyzes the diplomatic relations between the Khiva Khanate and the Kokand Khanate in the second half of the 18th century and the beginning of the 19th century. In addition to the formal content of political relations between the two khanates, the study highlights the aspects of cultural diplomacy formed through embassy visits, gifts, correspondence, trade, and religious ties. The relations between these two khanates of Central Asia are also studied through the activities of ambassadors, merchants, and local officials, and their interaction is analyzed from a broad socio-political and economic perspective. Khiva Khanate.

Keywords: Kokand Khanate, 18th–19th centuries, diplomacy, embassy, trade relations, Invitations, Firdavs ul-Iqbal, Historical World Map, cultural diplomacy, historical sources.

XVIII – XIX asrda Markaziy Osiyo mintaqasida uchta mustaqil davlat – Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonliklarining shakllanishi, ular o‘rtasidagi hududiy va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvi masalasi bugungi kunda mintaqaviy yaxlitlik tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar ko‘pincha Buxoro amirligi bilan bo‘lgan raqobat prizmasida

ko‘rilsa-da, ushbu ikki davlatning bevosita aloqalari alohida tadqiqot obyekti bo‘lishga loyiq. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — XVIII – XIX asrlardagi Xiva – Qo‘qon munosabatlariga oid mahalliy va xorijiy manbalarni tasniflash, ulardagi ma‘lumotlarning ishonchlik darajasini qiyosiy tahlil qilish hamda tarixshunoslikdagi bo‘shliqlarni ko‘rsatib berishdan iborat. XVIII – XIX asrlardagi Xiva – Qo‘qon munosabatlari mavzusi bo‘yicha manbalarni shartli ravishda uchta asosiy guruhga ajratish mumkin:

- Mahalliy saroy tarixnavisligi
- Arxiv hujjatlari
- Sayohatnomalar

Mahalliy saroy tarixnavisligi ham o‘z navbatida ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga – Xiva xonligida yaratilgan Xiva xonligining tashqi siyosatiga oid ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan Muhammad Rizo Ogahiyning ko‘plab asarlari jumladan, “Firdavs ul–iqbol”, “Riyoz ud–davla”, “Zubdat ut–tavorix”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, Sayyid Homid To‘ra Kamyobning “Tavorix ul–xavoqin” kabi asarlar;

Ikkinchi guruhga – Qo‘qon tarixnavislik maktabiga mansub asarlar Mirza Olim Mushrifning “Shohnomayi Nusratshoh”, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix”, Xudoyorxon zodaning “Anjum ut–tavorix”, kabi asarlari kiradi.

Arxiv hujjatlari guruhiga “Qo‘qon xonlari arxivi” va “Xiva xonlari arxivi”da saqlanib qolgan yozishmalar, yorliqlar va elchilik hisobotlari asosiy manbalar hisoblanadi. Shuningdek, bu guruhga Buxoro amirligida mavjud arxiv hujjatlarini ham kiritish mumkin. Chunki ushbu turdagi arxiv hujjatlarida ham Xiva va Qo‘qon xonliklari siyosati va ular bilan amalga oshirilgan turli munosabatlar haqida qimmatli ma‘lumotlar bo‘lishi tabiiy.

Sayohatnomalar: Rus va Yevropa sayyohlari (masalan, N.Muravyov, Flario-Beneveni, A.Vamberi, F. Nazarov, Muhammad G‘ofur) hamda elchilik missiyalari hisobotlari bo‘lib, ular xonliklararo munosabatlarga nisbatan “tashqi nuqtayi nazar”ni taqdim etadi.

Ushbu manbalardagi voqealar bayon etilishida subyektiv yondashuvga ega bo‘lsa-da, diplomatik yozishmalar va harbiy yurishlar haqida boy faktologik ma‘lumot beradi. Ushbu tadqiqotda tarixiylik, xolislik va qiyosiy-manbashunoslik usullaridan foydalanilgan.

Xiva va Qo‘qon xonliklari munosabatlarining o‘rganilish darajasi va manbaaviy asosi XIX asrda O‘rta Osiyoning siyosiy manzarasi Xiva, Qo‘qon va Buxoro xonliklari o‘rtasidagi murakkab diplomatik va harbiy munosabatlar bilan xarakterlanadi. Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi aloqalarni manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etish, nafaqat ikki davlat, balki butun mintaqaning geosiyosiy tarixini yoritishda fundamental ahamiyatga ega. Ushbu munosabatlarni yorituvchi manbalarni shartli ravishda uchta

asosiy guruhga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir: mahalliy rasmiy tarixnavislik asarlari, diplomatik arxiv hujjatlari hamda xorijiy sayyohlarning esdaliklari.

Xiva xonligida yaratilgan asarlar orasida Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol”¹ asari ushbu mavzu uchun tayanch manba hisoblanadi. Asarda Xiva xonlarining Qo‘qon bilan Buxoro amirligiga qarshi ittifoq tuzish harakatlari, xususan, 1821–yilda Qo‘qonga yuborilgan elchilar va ularning muzokaralari bayon etilgan. Ogahiy o‘zining keyingi asarlarida, jumladan “Zubdat ut-tavorix”da Xiva va Qo‘qon hukmdorlarining o‘zaro maktub almashish jarayonlari, “muhabbatnoma” va “ittifoqnoma” larning mazmunini batafsil keltirib o‘tadi². Bu manbalar Xiva saroyining tashqi siyosiy qarashlarini aks ettirib, munosabatlardagi asosiy urg‘uni harbiy ittifoq va hududiy daxlsizlikka qaratadi.

“Riyoz ud-davla”³ asarida Olloqulixon davridagi (1825–1842) Xiva va Qo‘qon munosabatlari, xususan, Buxoro amirligining agressiv siyosatiga qarshi ikki xonlikning harbiy–siyosiy ittifoqi masalalari markaziy o‘rinda turadi. Ogahiy ushbu asarida Qo‘qon xoni Muhammad Alixon (Madalixon) bilan bo‘lgan do‘stona aloqalarni, o‘zaro yuborilgan qimmatbaho sovg‘alar va “ittifoqnoma” larning tuzilish jarayonini batafsil bayon etadi. Ayniqsa, 1840-yillarda Buxoro amiri Nasrulloh Qo‘qonga tahdid solganda, Xiva xonining bu masalaga munosabati va ko‘rsatgan diplomatik yordami asarda aniq faktlar bilan yoritilgan.

“Shohid ul-iqbol”⁴ asari Muhammad Aminxon davri (1845-1855) voqealarini o‘z ichiga olib, unda Xiva – Qo‘qon munosabatlarining yangi bosqichi – hududiy yaxlitlikni saqlash va tashqi xavflarga qarshi birgalikda kurashish masalalari tahlil qilinadi. Ogahiy ushbu asarida Qo‘qondan kelgan elchilarning kutib olinish marosimlari, ularga ko‘rsatilgan izzat-ikromlar orqali ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy madaniyat va o‘zaro hurmat darajasini ko‘rsatib beradi. Mazkur manba orqali biz xonliklararo munosabatlarda nafaqat siyosiy, balki qarindoshlik va diniy birdamlik omillari ham muhim rol o‘ynaganini ko‘ramiz.

Xiva va Qo‘qon xonliklari munosabatlarini o‘rganishda Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”⁵ asari xronologik jihatdan eng keng qamrovli

¹ Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. (Nashrga tayyorlovchilar: I. Adizova, N. Jabborov). — Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2010. — 520 b.

² Muhammad Rizo Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. (Nashrga tayyorlovchi: N. Jabbarov). — Toshkent.: 2019. — 256 b.

³ Muhammad Rizo. Riyoz ud-davla. (Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov). — Toshkent.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at. 1978. — 216 b.

⁴ Muhammad Rizo Ogahiy. Shohid ul-iqbol. (Nashrga tayyorlovchilar: N. Shodmonov, O. Davlatov). — Toshkent. Muharrir. 2009. — 335 b.

⁵ Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. (Nashrga tayyorlovchi: F. G‘aniyev). — Toshkent.:

manba hisoblanadi. Bayoniy o‘z asarida nafaqat o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni, balki avvalgi davrlardagi Xiva–Qo‘qon aloqalarini ham tizimlashtirgan. Asarning o‘ziga xosligi shundaki, muallif ikki xonlik o‘rtasidagi munosabatlarni Markaziy Osiyodagi umumiy siyosiy inqiroz va Rossiya imperiyasining istilochilik harakatlari fonida tahlil qiladi. Bayoniy Qo‘qon xonligining tanazzulga yuz tutishi va uning Xiva xonligi taqdiriga ta’sirini bayon etar ekan, xonliklararo ittifoqning zaiflashuvi mintaqaviy mustaqillikka qanday xavf solganini ta’kidlaydi.

Xiva xonligi tarixnavisligining so‘nggi yirik namoyandalaridan biri Sayyid Muhammad Nosir (Kamyob To‘ra)ning “Tavorix ul–xavoqin”⁶ (Xoqonlar tarixi) asari esa mavzuni yangi ma’lumotlar bilan boyitadi. Muallif Sayyid Muhammadxon va Muhammad Rahimxon II (Soni) davridagi diplomatik jarayonlarni yoritishda shaxsan o‘zi ko‘rgan va ishtirok etgan voqealarga tayanadi. “Tavorix ul–xavoqin”da Qo‘qon xonligi bilan so‘nggi elchilik aloqalari, xususan, 1860–yillarning oxiri va 1870–yillarning boshida, ya’ni Qo‘qon xonligi tugatilishidan biroz avvalgi diplomatik muloqotlar aks etgan. Kamyob To‘ra asarida elchilarning shaxsi, ularning Xiva saroyidagi qabuli va muzokaralar tafsiloti boshqa manbalarga qaraganda aniqroq va xolisroq bayon etilgan.

Ushbu asarlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Bayoniy ko‘proq tarixiy jarayonlarning sabab-oqibatlariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, Kamyob To‘ra diplomatik aloqalarning tafsilotlari va saroy marosimlari tavsifiga katta ahamiyat bergan. Bu ikki manba birgalikda Xiva va Qo‘qon munosabatlarining so‘nggi bosqichini to‘laqonli yoritish imkonini beradi.

Qo‘qon xonligi tarixnavisligi, xususan, Hakimxon To‘raning “Muntaxab ut-tavorix” asari Xiva manbalaridagi ma’lumotlarni to‘ldiradi va ba’zan ularga qiyosiy xulosa beradi. Muallif Qo‘qon xonlarining Xiva bilan munosabatlarida savdo yo‘llari xavfsizligi va qozoq juzlari ustidan nazorat o‘rnatish masalasi birlamchi bo‘lganini ta’kidlaydi⁷. Ushbu asarning qimmatini shundaki, u voqealarni faqat saroy nuqtayi nazaridan emas, balki mintaqaviy manfaatlar prizmasidan tahlil qilish imkonini beradi.

Xudoyorxonxonozodaning “Anjum ut-tavorix”⁸ asari xonlikning so‘nggi davri

Kamalak. 1991. – 336 b.

⁶ Sayyid Muhammad Nosir (Kamyob To‘ra). Tavorix ul-xavoqin. (Qo‘lyozma, O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, inv № 11508). – 116 S.

⁷ Hakimxon To‘ra. Muntaxab ut-tavorix. (Nashrga tayyorlovchi: Sh. Vohidov). – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2010. – 720 b.

⁸ Xudoyorxonxonozoda. Anjum ut-tavorix. (Fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjimon va izohlar muallifi: Sh. Vohidov) – Toshkent.: Fan va texnologiya. 2014. – 348 b.

munosabatlarini tahlil qilishda ahamiyatlidir. Muallif Xudoyorxon saroyida yuqori lavozimlarda bo'lgani sababli, Xiva bilan olib borilgan diplomatik yozishmalar va yashirin muzokaralarning bevosita guvohi sifatida ma'lumot beradi. Asarda xonliklararo munosabatlarning zaiflashuvi va bu jarayonning chor Rossiyasi istilosi arafasidagi mintaqaviy xavfsizlikka salbiy ta'siri tanqidiy ruhda yoritilgan.

Muhammad Hakimxon To'raning "Muntaxab ut-tavorix" asari ushbu mavzu bo'yicha eng xolis va informativ manbalardan biri sanaladi. Muallifning o'zi siyosiy jarayonlar markazida bo'lgani va Rossiya imperiyasi bilan elchilik aloqalarida qatnashgani sababli, Xiva va Qo'qon o'rtasidagi "uchburchak diplomatiya" (Xiva–Qo'qon–Buxoro) ni ochib beradi. Ayniqsa, 1821–1822–yillardagi Buxoroga qarshi qo'shma harbiy harakatlar va elchilar almashinuvi tafsilotlari boshqa manbalarda uchramaydigan darajada batafsil keltirilgan.

Tadqiqotning arxiv hujjatlari bilan bog'liq qismi O'zbekiston Milliy arxivi fondlarida saqlanayotgan "Xiva xonlari arxivi" (I-125 fond) va "Qo'qon xonligi devonxonasi hujjatlari" hujjatlari bilan boyitiladi. Arxiv materiallari orasida saqlanib qolgan diplomatik yozishmalar, maktublar va xonlarning yorliqlari xonliklararo munosabatlarning rasmiy protokoli, elchilarni qabul qilish tartibi va sovg'a-salomlar almashinuvi haqida aniq faktik ma'lumotlar beradi. Xiva–Qo'qon munosabatlari manbashunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, ikki davlat o'rtasidagi aloqalar ko'p hollarda Buxoro amirligi bilan bo'lgan raqobat fonida shakllangan. Mahalliy manbalar va arxiv hujjatlarining qiyosiy tahlili bu munosabatlarning nafaqat harbiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatlarini ham chuqur o'rganish imkonini beradi.

Xonliklararo diplomatik va ijtimoiy–iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda narativ manbalardagi subyektivlikni xolis faktlar bilan to'ldiruvchi eng ishonchli manba — bu arxiv hujjatlari hisoblanadi. O'zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan fondlar Xiva xonlari arxivi va Qo'qon xonligi devonxonasi hujjatlati o'rtasidagi rasmiy aloqalarning guvohidir. Diplomatiy yozishmalar va diplomatika (I-126, I-125, I-715 fondlar).

Xiva xonlari arxivi⁹ (I-125 fond) va Qo'qon xonlari devonxonasi hujjatlari¹⁰ (I-715) hamda Buxoro qo'shbegi arxivi¹¹ (I-126) orasida saqlanib qolgan "murosila" (o'zaro yozishmalar), "fathnoma" (g'alaba xabarlar) va "ittifoqnoma" lar munosabatlarning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjatlarning diplomatik tahlili ikki davlat hukmdorlarining bir-biriga bo'lgan siyosiy ehtiromi va maqomini belgilash imkonini beradi. Masalan, Xiva xoni Olloqulixon va Qo'qon xoni Muhammad Alixon o'rtasidagi "birodarlik va ittifoqchilik" ruhidagi maktublar Buxoro amirligiga qarshi umumiy mudofaa tizimi shakllanganini arxiv darajasida tasdiqlaydi.

Rus va xorijiy mualliflarning esdaliklarida Xiva va Qo'qon munosabatlarining

⁹ O'zMA. I-125 fond Xiva xonlari arxivi (Xiva xonlari devonxonasi).

¹⁰ O'zMA. I-715 fond Qo'qon xonlari devonxonasi hujjatlari.

¹¹ O'zMA. I-126 fond Buxoro qushbegi arxivi.

yoritilishi XVIII – XIX asrda Markaziy Osiyo xonliklariga tashrif buyurgan rus harbiylari, elchilari va G‘arb sayyohlarining asarlari Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarni “tashqi kuzatuvchi” nigohi bilan o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalar mahalliy solnomalardagi ma‘lumotlarni xolislik nuqtayi nazaridan tekshirish imkonini beradi.

Rossiya imperiyasining Xivaga yuborgan elchisi N. N. Muravyovning “Xiva va Turkmanistonga sayohat”¹² asari XIX asr boshidagi Xiva xonligining tashqi siyosiy yo‘nalishini yoritib beradi. Muallif Xiva xoni Muhammad Rahimxon I ning Qo‘qon xonligi bilan Buxoro amirligiga qarshi harbiy-siyosiy ittifoq tuzish borasidagi diplomatik harakatlarini alohida qayd etadi. Muravyovning ta‘kidlashicha, Xiva va Qo‘qon o‘rtasidagi yaqinlashuv mintaqada Buxoro gegemonligini jilovlash strategiyasiga asoslangan edi.

Qo‘qon xonligi nuqtayi nazaridan munosabatlarni yoritishda Filipp Nazarovning “Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии”¹³ asari qimmatli ma‘lumotlar beradi. Muallif Qo‘qon bozorlarida Xiva savdogarlarining faolligi va ikki xonlik o‘rtasidagi karvon yo‘llari xavfsizligi masalasida hukmdorlar o‘rtasidagi kelishuvlar mavjudligini tasvirlaydi. Bu esa xonliklararo munosabatlar faqat siyosiy emas, balki chuqur iqtisodiy asosga ega bo‘lganidan dalolat beradi.

G‘arb sayyohlari orasida Arminiy Vamberining “O‘rta Osiyoga sayohat”¹⁴ asari diplomatik jarayonlarni tahlil qilishda alohida o‘rin tutadi. Vamberi Xiva xoni Sayyid Muhammadxon va Qo‘qon xoni Xudoyorxon o‘rtasidagi o‘zaro maktub almashinuvi hamda Rossiya imperiyasi tahdidiga qarshi birgalikda kurashish zaruriyati haqidagi fikr-mulohazalarni bayon etadi. Uning asarida xonliklararo diplomatik xatlar yetkazilishining maxfiy mexanizmlari haqida nodir detallar keltirilgan.

N.P. Ignatyevning “Xiva va Buxoroga elchilik”¹⁵ hisobotlarida Xiva va Qo‘qon xonliklarining chegara hududlaridagi, xususan, Sirdaryoning quyi oqimidagi aholidan soliq yig‘ish masalasidagi o‘zaro raqobati va bu raqobatning Rossiya manfaatlari asosidagi tahlili berilgan. Bu kabi manbalar xonliklararo munosabatlarning nafaqat do‘stona, balki ziddiyatli tomonlarini ham ochib berishga xizmat qiladi.

XIX asr Markaziy Osiyo tarixshunosligida Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi munosabatlarni manbashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishda:

Birinchiidan, mahalliy xonliklar tarixnavisligi (Munis, Ogahiy, Bayoniy, Mulla

¹² Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах. — М.: Тип. Августа Семена. 1822. — С. 142.

¹³ Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. — М.: Акад. Наук. 1821. — С. 68.

¹⁴ Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. — М.: Восточная литература. 2003. — С. 156.

¹⁵ Игнатъев Н.П. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году. — СПб.: Акад. Наук. 1897. — С. 92

Niyoz Muhammad, Hakimxon To‘ra va boshqalar) munosabatlarning siyosiy-diplomatik manzarasini chizib beruvchi asosiy fundament hisoblanadi. Ushbu manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Xiva va Qo‘qon o‘rtasidagi aloqalar ko‘p hollarda Buxoro amirligining mintaqadagi gegemonligiga qarshi “muvozanat saqlovchi ittifoq” xarakteriga ega bo‘lgan. Ayniqsa, Ogahiyning “Riyoz ud-davla” va “Shohid ul-iqbol” asarlari ushbu ittifoqning rasmiy-huquqiy asoslarini o‘rganishda beqiyosdir.

Ikkinchidan, arxiv hujjatlari (Xiva xonlari va Qo‘qon devonxonasi hujjatlari) narativ manbalardagi sub‘ektiv qarashlarni ob‘ektivlashtirishga xizmat qiladi. Maktublar, yorliqlar va elchilik hisobotlari orqali xonliklararo munosabatlarning nafaqat harbiy, balki murakkab diplomatik etiket va protokol qoidalariga asoslangani isbotlanadi. Bu hujjatlar munosabatlarning asosini – elchilar shaxsi va muzokaralar tafsilotini ochib beradi.

Uchinchidan, rus va xorijiy sayyohlar esdaliklari (Muravyov, Nazarov, Vamberi va boshqalar) xonliklararo aloqalarga “tashqi nigoh” sifatida xizmat qilib, mintaqadagi geosiyosiy vaziyatni xalqaro kontekstda baholash imkonini beradi. Ular xonliklar o‘rtasidagi savdo yo‘llari xavfsizligi va iqtisodiy manfaatlar to‘qnashuvini xolis yoritgan.

Xulosa qilib aytganda, Xiva va Qo‘qon munosabatlarning manbaviy asosi rang-barang va serqirra bo‘lib, ularni qiyosiy-tanqidiy metod orqali o‘rganish XVIII – XIX asrlardagi Markaziy Osiyo diplomatiyasi tarixini yangi bosqichda yoritishga xizmat qiladi. Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va diplomatik aloqalarni o‘rganishda mahalliy saroy tarixchilari tomonidan yozilgan asarlar hamda davlat arxiv hujjatlari eng birlamchi va ishonchli manbalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. (Nashrga tayyorlovchilar: I. Adizova, N. Jabborov). – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2010. – 520 b.
2. Muhammad Rizo Ogahiy. Zubdat ut-tavorix. (Nashrga tayyorlovchi: N. Jabbarov). – Toshkent.: 2019. – 256 b.
3. Muhammad Rizo. Riyoz ud-davla. (Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov). – Toshkent.: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at. 1978. – 170 b.
4. Muhammad Rizo Ogahiy. Shohid ul-iqbol. (Nashrga tayyorlovchilar: N. Shodmonov, O. Davlatov). – Toshkent. Muharrir. 2009. – 335 b.
5. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy. (Nashrga tayyorlovchi: F. G‘aniyev). – Toshkent.: Kamalak. 1991. – 175 b.
6. Hakimxon To‘ra. Muntaxab ut-tavorix. (Nashrga tayyorlovchi: Sh. Vohidov). – Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2010. – 720 b.

7. Xudoyorxonxonzoda. Anjum ut-tavorix. (Fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjimon va izohlar muallifi: Sh. Vohidov) – Toshkent.: Fan va taxnologiya. 2014. – 348 b.
8. O‘zMA. I-125 fond Xiva xonlari arxivi (Xiva xonlari devonxonasi).
9. O‘zMA. I-715 fond Qo‘qon xonlari devonxonasi hujjatlari.
10. O‘zMA. I-126 fond Buxoro qushbegi arxivi.
11. Муравьев Н. Н. Путешествие в Туркмению и Хиву в 1819 и 1820 годах. – М.: Тип. Августа Семена. 1822. – С. 144.
12. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней части Азии. – М.: Акад. Наук. 1821. – С. 168.
13. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.: Восточная литература. 2003. – С. 194.
14. Игнатъев Н.П. Миссия в Хиву и Бухару в 1858 году. – СПб.: Акад. Наук. 1897. – С. 92